TIKUV-TRIKOTAJ SANOATIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH OMILLARI VA BOSHQARUV STRATEGIYALARI.....	725
Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
BURNOUTNING OLDINI OLIISH: XODIMLAR SALOMATLIGI STRATEGIYASI.....	731
Ergasheva E'zoza Dilshod qizi	
O'ZBEKISTONDA KORXONALARNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	736
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA XARAJATLARNI BOSHQARISH VA HISOBGA OLIISHNING INNOVATSION USULLARI: MENEJMENT VA BUXGALTERIYANING O'ZARO INTEGRATSIYASI	742
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	748
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI	754
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
ВОЗОБНОВЛЕНИЕ ДОБЫЧИ ПРИРОДНОГО ГАЗА ИЗ ТРЁХ СКВАЖИН УЧАСТКА ХОДЖАСАЯТ ГКМ ДЕНГИЗКУЛЬ	758
Набиев Шахзод Темурович, Иргашбаев Шохрух Фаррух угли, Маннафов Улугбек Умар угли	
MADANIY TURIZM INDUSTRIYASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	764
Toxirov Dilyor Davlatovich	
MOLIYAVIY AUTSORSING NAZARIYALARI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	768
Babadjanov Umiddbek Kamildjanovich	
TURIZM – TARIXIY XOTIRA VA ZAMONAVIY XIZMATLAR UYG'UNLIGI IFODASI	773
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOHIYATI VA BAHOLASH MEZONLARI	777
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI	784
Ro'ziyeva Shaxlo Salimboyevna	
AXBOROT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH VA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH	788
Samiyeva Maftuna Faxriddin qizi	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI DAROMADLILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	791
Sanayev Javoxir Shovkat o'g'li	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	796
Maxmudov S.T.	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКИХ КЛАСТЕРОВ	801
Юсупова Н.Т.	
SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY FAKTORLAR TAHLILI	807
Rahimova Mushtariybegim Muxammadg'olib qizi	
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI.....	812
Abdumalikova G.F.	
MINTAQAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSION ASOSLARI	821
Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	
RAQAMLI AVIATSIYA EKOTIZIMI: AI/ML, DIGITAL TWIN VA BLOKCHEYN INTEGRATSIYASI	828
Azimova Moxinur Nozimovna	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	834
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATINING REKREATSIYA RESURSLARI VA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI SALOHİYATI	839
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
MINTAQALAR TURISTIK-REKREATSION IMKONIYATLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY GIS USULLARINI QO'LLASH (SARIOSIYO TUMANI MISOLIDA)	845
Safarov Manuchexr Axtam o'g'li	
XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH	852
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TURIZM FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHGA OID NAZARIY BILIMLARNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI	857
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	



TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI MUSTAHKAMLIGINI BAHOLOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMI	863
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Maxsudov Sherzod Solijonovich	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	877
Mahmudov Sarvar	
ATROF-MUHITGA OID FISKAL KO'RSATKICHLAR ASOSIDA MINTAQAVIY BAHOLASH	882
Zilola Rahmatova	
XORAZM VILOYATI TUMANLARIDA EKSPORT SAMARADORLIGI: STOXAСТИK CHEGARAVIY TAHLIL (SFA) ASOSIDAGI EMPIRIK YONDASHUV	887
Fozil Xolmurotov	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ БЕДНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА.....	900
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
EKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI SALOMATLIGINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	905
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich	
CHO'L HUDUDLARIDA TURISTIK RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	911
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich	
КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ	918
Сагидуллин Фарид Радикович	
ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNINI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voit o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnova Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
TADBIRKORLIK FAOLIYATINING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNINI VA AHAMIYATI	1070
Ergasheva Komila To'ra qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	



MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUJJATLASHTIRISH

Bolibekov Baxtiyor Achilovich

Fan va texnologiyalar universiteti
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
kafedrası i.f.n., dotsenti

Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich

Fan va texnologiyalar universiteti
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
kafedrası katta o'qituvchisi
Email: traxmonqulov@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu ishda mahsulot, ish va xizmatlar tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlarning mohiyati, tarkibi hamda ularni buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish masalalari yoritilgan. Moddiy xarajatlar korxona faoliyatida muhim o'rin tutib, ishlab chiqarish jarayonining asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi. Ishda xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya va boshqa ishlab chiqarish resurslariga qilinadigan xarajatlarni hujjatlashtirish tartibi, ularni to'g'ri rasmiylashtirish va nazorat qilish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, moddiy xarajatlarni hujjatlashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tannarx, moddiy xarajatlar, buxgalteriya hisobi, hujjatlashtirish, ishlab chiqarish xarajatlari, nazorat, axborot texnologiyalari.

Abstract. This paper examines the nature and structure of material costs included in the cost of products, works, and services, as well as their proper reflection in accounting. Material costs play a vital role in enterprise operations and constitute a key element of the production process. The study analyzes the procedures for documenting expenses on raw materials, supplies, fuel, energy, and other production resources, as well as mechanisms for their accurate registration and control. The importance of using modern information technologies in the documentation of material costs is also highlighted.

Key words: cost price, material costs, accounting, documentation, production expenses, control, information technologies.

Аннотация. В данной работе раскрыта сущность и состав материальных затрат, включаемых в себестоимость продукции, работ и услуг, а также вопросы их правильного отражения в бухгалтерском учёте. Материальные затраты занимают важное место в деятельности предприятия и являются основным элементом производственного процесса. В исследовании проанализированы порядок документального оформления расходов на сырьё, материалы, топливо, энергию и другие производственные ресурсы, а также механизмы их правильного учёта и контроля. Кроме того, показано значение использования современных информационных технологий при документировании материальных затрат.

Ключевые слова: себестоимость, материальные затраты, бухгалтерский учёт, документирование, производственные расходы, контроль, информационные технологии.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda mahsulot, ish hamda xizmatlar tannarxini to'g'ri shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tannarxning asosiy tarkibiy qismlaridan biri moddiy xarajatlardir. Ular ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinadigan xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, ehtiyot qismlar va boshqa resurslar qiymatini o'z ichiga oladi.

Moddiy xarajatlarni to'g'ri hisobga olish va hujjatlashtirish korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ularni amaldagi huquqiy me'yorlarga muvofiq ravishda rasmiylashtirish, xarajatlarning



iqtisodiy mazmunini aniq belgilash hamda ularni ishlab chiqarish tannarxiga asosli tarzda kiritish buxgalteriya hisobining eng muhim vazifalaridan biridir.

Mazkur ishda moddiy xarajatlarning tarkibi, ularni hisobga olish va hujjatlashtirish tartibi, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali hisob jarayonini takomillashtirish masalalari o'rganiladi. Shu orqali korxonalarda xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahsulot, ish va xizmatlar tannarxini shakllantirish jarayonida moddiy xarajatlar muhim o'rin tutadi. Tannarxni aniqlash, xarajatlarni hujjatlashtirish va ularni to'g'ri tasniflash masalalari bo'yicha bir qator mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, R. X. Davlatov [1] o'zining "Buxgalteriya hisobi va audit" asarida moddiy xarajatlarni hisobga olishning nazariy asoslarini yoritib, ularning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sirini ko'rsatadi. A. Karimov [2] esa tannarxni shakllantirishda resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish omillarini tahlil qilgan.

Xorijiy adabiyotlarda esa Hansen va Mowen [3] o'zlarining "Cost Management: Accounting and Control" nomli asarida moddiy xarajatlarni hisobga olishning zamonaviy uslublari, normativ va standartlashtirilgan tahlil yondashuvlarini ishlab chiqqan. Horngren va hamkorlari [4] esa buxgalteriya hisobida xarajatlarni boshqarishning strategik ahamiyatini alohida ta'kidlaydilar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Buxgalteriya hisobi milliy standartlari" (BHMS) hamda "Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotini tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma" hujjatlari moddiy xarajatlarni hujjatlashtirish va hisobda aks ettirishning amaldagi tartibini belgilab beradi.

Ushbu manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, moddiy xarajatlarni to'g'ri hujjatlashtirish korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, xarajatlar nazoratini kuchaytirish hamda ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda mahsulot, ish va xizmatlar tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlarni o'rganish, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish va hujjatlashtirishning amaliy jihatlarini tahlil qilish maqsad qilingan. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik, induktiv hamda deduktiv usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ishlab chiqarish samaradorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri — mahsulot, ish va xizmatlarning tannarxini shakllantiruvchi xarajatlardir. Chunki tannarx korxona tomonidan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida sarflangan barcha resurslar yig'indisini ifodalaydi.

Xarajatlarni boshqarish korxona faoliyatidagi eng murakkab jarayonlardan biridir. U ishlab chiqarish davomida sodir bo'ladigan barcha xo'jalik operatsiyalarini o'z ichiga olib, boshqaruv samaradorligini belgilaydi.

Mahsulot, ish va xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxi — bu ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy vositalar, mehnat resurslari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarning qiymat ifodasidir.

Tannarx tarkibiga quyidagi asosiy xarajat turlari kiradi:

1. Mehnatga haq to'lash va ijtimoiy ajratmalar;
2. Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
3. Yoqilg'i va elektr energiyasi xarajatlari;
4. Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari.

Moddiy xarajatlar qiymati esa resurslarning sotib olish narxi, vositachilik haqlari, bojxona to'lovlari, soliqlar, transport va saqlash xarajatlari asosida shakllanadi.

Moddiy xarajatlarni to'g'ri hisobga olish mahsulot tannarxiga katta ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun hisobni shunday tashkil etish zarurki, unda haqiqiy xarajatlarni normalar bilan uzluksiz va tezkor solishtirish imkoni yaratilgan bo'lsin.

Xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish, tovarlar sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan sarflarning puldagi ifodasidir. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar ishlab chiqarish yoki mahsulotni qayta ishlashda foydalaniladigan tabiiy va mehnat resurslari, xom ashyo va materiallar, yoqilg'i hamda energiya, asosiy vositalar va ishlab chiqarishga tegishli boshqa xarajatlarning qiymat ifodasidir.

Korxonalarda xarajat turlari va moddalarining shakllanishi ularning asosiy, moliyaviy va investitsiya faoliyatidan kelib chiqadi. Ishlab chiqarish korxonalarining xarajatlari, asosan, xom ashyo, materiallar, yoqilg'i



hamda mehnatga haq to'lash xarajatlaridan iborat bo'ladi.

Mamlakatimizda xarajat moddolari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-dekabrda 567-sonli qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan) "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asoslanadi.

Mazkur Nizomga ko'ra barcha xarajat moddalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Mahsulot, ish va xizmatlarni ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

- Bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
- Bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;
- Boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar.

2. Davr xarajatlari:

- Sotish xarajatlari;
- Ma'muriy xarajatlar;
- Boshqa operatsion xarajatlar.

3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar:

- Xorijiy valyuta operatsiyalarida yuzaga keladigan salbiy kurs farqlari;
- Foizlar bo'yicha xarajatlar;
- Qimmatli qog'ozlarga kiritilgan mablag'larni qayta baholash;
- Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

4. Favqulodda zararlar.

Mahsulot, ish va xizmatlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibida moddiy xarajatlar alohida ahamiyatga ega. Chunki ushbu xarajatlar mahsulot, ish va xizmatlarning asosini tashkil etadi va o'z qiymatini to'g'ridan-to'g'ri tannarxga o'tkazadi. Shunday ekan, moddiy xarajatlarning korxonaga kirim qilinishi, ularning tannarxini to'g'ri shakllantirish, baholash, saqlash xarajatlarini aniqlash hamda ishlab chiqarish jarayonida sarflanishini to'g'ri tashkil etish mahsulot tannarxining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababdan ham moddiy boyliklarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni quyidagicha ko'rib chiqish mumkin:

- materiallarning shartnoma qiymati;
- boj to'lovlari va yig'implari;
- materiallarni sotib olishda qatnashgan ta'minotchi va vositachilarga to'lanadigan komissiya haqlari;
- materiallarni sertifikatlash hamda texnik sharoitlarga muvofiq sinovdan o'tkazish xarajatlari;
- transport-tayyorlov xarajatlari;
- elektr energiyasi va yoqilg'i xarajatlari;
- transportirovka qilish tavakkalchiliklarini sug'urtalash bilan bog'liq xarajatlar.

Yuqoridagi xarajatlardan kelib chiqib, mahsulot, ish va xizmatlar tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlarni hujjatlashtirishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- moddiy boyliklarning kelib tushishi, ichki harakati va chiqib ketishini hujjatlarda to'g'ri rasmiylashtirish hamda muomalalarning o'z vaqtida aks ettirilishini ta'minlash;
- moddiy boyliklarning kirim-chiqimi bo'yicha ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlash;
- moddiy boyliklarning saqlanishi, harakati va to'g'ri ishlatilishi ustidan samarali nazorat o'rnatish;
- zaxiralar va xarajatlar bo'yicha belgilangan me'yorlarga qat'iy amal qilish;
- foydalanilmayotgan moddiy boyliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularni belgilangan tartibda realizatsiya qilish;

- xo'jalik yurituvchi subyekt omborlaridagi moddiy boyliklar qoldig'i haqida aniq ma'lumotlar olish.

Mahsulot, ish va xizmatlar tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar hisobini yuritishda bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlarga asoslaniladi. Ushbu hujjatlar buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish, moddiy resurslar harakatini nazorat qilish hamda tannarxni shakllantirishda yagona yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi. Quyidagi asosiy me'yoriy hujjatlar shular jumlasidandir:

O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni — buxgalteriya hisobining umumiy qoidalar va tamoyillarini belgilaydi.

№4-son Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) "Tovar-moddiy zahiralarni" — moddiy zahiralarni hisobga olish va baholash tartibini belgilaydi.

№19-son Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish" — korxona aktivlarini tekshirish, aniqlash va hisob bilan solishtirish jarayonlarini tartibga soladi.

№21-son Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) "Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" — schyotlar tizimi, ularning ishlatilish tartibi hamda hisob registrini yuritish qoidalarini belgilaydi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahsulot, ish va xizmatlar tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlarni to'g'ri hisobga olish ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirish hamda korxonaning moliyaviy natijalarini aniq baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni hamda №4, №19 va №21-sonli BHMS moddiy xarajatlarning hisobini yuritishda yagona yondashuvni ta'minlaydi.

Mazkur me'yoriy hujjatlar asosida moddiy resurslarning kirim-chiqimi, zahiralar bahosi, inventarizatsiya natijalari va schyotlar tizimi aniq tartibda aks ettiriladi. Natijada korxona faoliyati shaffof bo'lib, buxgalteriya hisobining ishonchliligi ta'minlanadi. Shu bois, tannarx hisobida huquqiy-me'yoriy asoslarning to'liq va to'g'ri qo'llanilishi iqtisodiy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim omil sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davlatov, R. X. (2020). Buxgalteriya hisobi va audit. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
2. Karimov, A. (2019). Korxona xarajatlarini boshqarish va tannarxni shakllantirish masalalari. Toshkent: TDIU nashriyoti.
3. Hansen, D. R., & Mowen, M. M. (2017). Cost Management: Accounting and Control. South-Western Cengage Learning, USA.
4. Horngren, C. T., Datar, S. M., & Rajan, M. (2018). Cost Accounting: A Managerial Emphasis. Pearson Education, London.
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2022). Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS). Toshkent.
6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (2021). Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotini tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma. Toshkent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>